14–16-MAVZULAR

SAMARQAND, BUXORO VA NAVOIY VILOYATLARI



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarining mashhur tarixiy obidalari haqida ma’lumotga ega bo‘lasiz;
- ayrim qadimgi shaharlar nima sababdan xarobaga aylanganini bilib olasiz;
- tarixiy manbalar yordamida o‘tmish haqida mustaqil xulosa chiqarishni o‘rganasiz.

Samarqand – yer yuzining sayqali

Samarqand viloyati O‘zbekistonning markazida, yurtimizning eng go‘zal kengliklaridan sanalmish ***Zarafshon vodiysi***da joylashgan. Viloyat yerlarida odamlar kamida 100 000 yil burungi davrlardan buyon yashab kelmoqdalar. Samarqand o‘zbek davlatchiligi paydo bo‘lgan ilk o‘lkalarimizdan biridir.



14.1-rasm. *Qadimgi Samarqand shahrining qayta tiklangan ko‘rinishi.*

Ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand

Nima uchun biz Samarqandni **ko‘hna va hamisha navqiron** deb ataymiz? O‘tgan darslarda Sopollitepa, Jarqo‘ton, Dalvarzin singari qadimgi shaharlarimiz yo‘q bo‘lib ketgani va buning sabablari haqida bilib oldingiz. Italiyadagi Pompey, Erondagi Taxti Jamshid kabi taniqli shaharlardan hozirda xarobalar qolgan, xolos. **3000 yil oldin** burungi Samarqand shahridan shimoli-g‘arbda joylashgan, hozirda ***Ko‘ktepa*** sifatida tanilgan yerda asos solingan Samarqand ko‘p vaqt o‘tganiga qaramay tinimsiz yuksalishda davom etmoqda. Shu bois uni ham ko‘hna, ham hamisha navqiron deb ulug‘laymiz.



14.2-rasm. *Alp Er To‘nganing ijodiy tasviri.*

Alp Er To‘nga – Turonning buyuk hukmdori

Samarqanddagi ***Afrosiyob xarobalari*** haqida eshitganmisiz? **2700 yil oldin** Zarafshonning markazi ***Ko‘ktepa***dan janubroqqa – hozirgi Samarqandning shimolidagi tepaliklarga ko‘chgan. Xalq orasidagi eski rivoyatlarga ko‘ra, bu ulug‘vor kentni ***Alp Er To‘nga*** qurdirgan.

1220-yili ***Chingizxon*** Samarqandga hujum qilib, shaharni vayronaga aylantirgan, so‘nggi asrlarda barpo etilgan barcha go‘zal imoratlarni buzdirgan, aholining ko‘p qismini asirga olgan va qirib tashlagan.

Shu tariqa, **1500 yildan beri** turli sinovlardan o‘tib kelgan go‘zal shahar xarobaga aylangan. Biroq turonliklar Alp Er To‘nga xotirasiga atab, uni ***Afrosiyob (Alp Er To‘nga) qo‘rg‘oni*** deb atashda davom etganlar.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Zarafshon vodiysining siyosiy markazi sanalgan Samarqand ulkan va boy shahar sifatida dunyoga tanilgan. Shuning uchun ham, ajdodlarimiz uni ***Semizkent,*** ya’ni yirik va mo‘l-ko‘l shahar deb ataganlar. 8-yuzyillikda Turonni egallagan arablar Semizkentni o‘z tillariga moslab Samarqand deya o‘zgartirib yuborganlar.

Eslab qoling

Kent eski turkiy tilda qishloq, shahar deganidir. Shahar so‘zi asli forscha bo‘lib, o‘zbek tilida o‘rnashib qolgan.

Samarqand – dunyoning bosh siyosiy markazi

Xaritalarning paydo bo‘lishiga bag‘ishlangan 5-darsda **Amir Temur asos solgan saltanat xaritasi** bilan tanishgan edingiz (5.5-rasmga qarang). Mashg‘ulotlarda esa ushbu xaritadagi ulkan kenglikda bugun qaysi davlatlar joylashganini ham aniqlashga urinib ko‘rgandingiz.

Chindan ham, **1405-yili** saltanatimiz tarkibiga hozirgi Sudan, Misr, Falastin, Isroil, Livan, Urdun, Suriya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Gurjiston, Ozarbayjon, Armaniston, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston (shimoliy qismi), Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Xitoy (g‘arbiy qismi), Qozog‘iston, Rossiya, Ukraina kabi **29 ta davlat**ning hududlari kirgan.

Bundan tashqari, Yevropaning Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya mamlakatlari hamda tarixiy Vizantiya davlati Amir Temur ko‘ngliga yo‘l topish uchun o‘z elchilarini uning qarorgohiga yuborib turganlar.

Ko‘rib turganingizdek, **15-yuzyillik boshlarida Samarqand dunyoning bosh siyosiy poytaxtiga aylangan edi.**



14.3-rasm. *1404-yil. Samarqanddan 6 kilometr naridagi Dilkusho bog‘idagi saroy. Amir Temur ispaniyalik elchi Rui Gonsales de Klavixoni qabul qilmoqda.*

Bilib qo‘ygan yaxshi

Samarqand shahrining **eng yuksalgan pallasi** davlatimizga Amir Temur boshchilik qilgan yillarga (1370–1405) to‘g‘ri keladi. Ushbu tarixiy voqea o‘sha zamonlardayoq keng tan olingan va Samarqandni **“Amir Temur poytaxti”, “Amir Temur shahri”** deb ham atash odatga aylangan. Bugun **Yangi O‘zbekiston**da Amir Temur poytaxti – Samarqandning tarixiy dovrug‘i tiklanmoqda.

Samarqand – dunyo ilm-fan va madaniyat markazi

Samarqandga juda ko‘p ta’riflar berilgan. Ular orasida eng ko‘p tilga olinadigan ***“Yer yuzining sayqali”*** kabi so‘zlarni siz ham eshitgandirsiz. Chindan ham, Amir Temur, uning vorislari, shuningdek, ***Yalangto‘sh Bahodir***ning ulkan xizmatlari tufayli shaharda bir-biridan salobatli va go‘zal imoratlar qurilgan. Ilm-fan, adabiyot va san’atni o‘ta qadrlagan Sohibqiron bobomiz olimlar, shoirlar, rassomlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan, maktablar, madrasalar, kutubxonalar barpo ettirib, iste’dodli yoshlar uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan.

Uning ishini davom ettirgan o‘g‘li ***Shohrux,*** nabiralari ***Ulug‘bek, Boysung‘ur, Ibrohim Sulton*** hamda boshqa temuriy shahzoda va malikalar saltanatning o‘nlab shaharlarida ilm-fan va madaniyat markazlarini ochganlar va ularga homiylik qilganlar. Ulug‘bek bobomiz Samarqandda madrasa va rasadxona qurdirib, ular negizida ***Bilimlar akademiyasi***ni tuzgan va unda o‘z davrining **200 dan ortiq** atoqli olimlari matematika, geometriya, fizika, astronomiya, tibbiyot yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borganlar, buyuk kashfiyotlar qilganlar. **15-yuzyillikning oxirigacha** davom etgan bunday yuksalish jarayoni butun dunyo olimlari tomonidan ***Temuriylar oltin chog‘i – Ikkinchi Uyg‘onish davri*** sifatida tan olingan.



14.4-rasm. *Ulug‘bek Samarqanddagi “Bilimlar akademiyasi”da olimlar davrasida.*

Samarqand durdonalari

Amir Temur maqbarasi

Bu maqbara insoniyat tarixidagi eng buyuk shaxslardan biri bo‘lgan ulug‘ bobomiz ***Amir Temur*** dafn etilgan tabarruk ziyoratgohdir. **1403–1424-yillari** bunyod etilgan ushbu maqbarada Sohibqirondan tashqari uning ustozi ***Sayyid Baraka,*** *o‘g‘illari* ***Mironshoh, Shohruh,*** *nevarasi* ***Ulug‘bek*** va temuriylar sulolasining boshqa vakillari ham so‘nggi qo‘nim topganlar.



Bibixonim jome masjidi

1399–1404-yillari Amir Temur o‘zining suyukli xotini, bosh malika Saroymulkxonimga atab Bibixonim jome masjidini barpo ettirgan. Uning balandligi 40 metrli asosiy gumbazi hamda 480 ta ustuni va 400 ta gumbazchasi bo‘lgan. Masjid haligacha dunyodagi eng mahobatli imoratlardan biri sanaladi.



Registon maydoni – Yer yuzining gavhari

Samarqandning yuragi ***Registon maydonidir.*** U o‘zining ***Ulug‘bek, Sherdor*** va ***Tillakori*** madrasalari bilan butun dunyoga mashhur va jahonda yagona. Ushbu tengsiz tarixiy obidalar ajdodlarimizning yuksak me’morchilik san’ati va ilmiy salohiyatiga qo‘yilgan o‘ziga xos haykaldir. Shuning uchun ham uni Yer yuzining gavhari deb ulug‘laydilar.



Ulug‘bek rasadxonasi

1414-yili, ya’ni 20 yoshida osmon jismlarini kuzatishni boshlagan Ulug‘bek **1424–1428-yillari** Samarqand chetidagi Cho‘ponota tepaligida uch qavatli rasadxona qurdirgan. O‘sha vaqtda olamning biron yerida bunday murakkab, noyob va salobatli ilmiy qurilma bo‘lmagan. O‘ttiz yillik izlanishlari natijasi o‘laroq Ulug‘bek **1444-yili** o‘zining buyuk va nodir asari ***“Ulug‘bek ziji”*** ni yozib tugatgan. U matematika va astronomiyaga bag‘ishlangan ushbu yangiligida **1018 ta** yulduzning koinotdagi o‘rnini aniq ko‘rsatib bergan.



O‘zbekning ulug‘lari



Abu Mansur Moturidiy (870–944)

Abu Mansur Moturidiy 870-yili Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilgan.

Ilohiyotshunos va faylasuf. Abu Mansur Moturidiy **turmushda uchraydigan biror hodisaga ko‘r-ko‘rona ishonmaslik, yaxshi va yomon ishlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini faqat bilim orqali tekshirib ko‘rish zarurligi** fikrini olg‘a surgan. Uning shiori: “Har bir mavzuda aql yuritish va tafakkur qilish kerak”.

944-yili Samarqandda vafot etgan va shu yerda dafn qilingan.

Eslab qoling

Rasadxona – osmon jismlarini kuzatish va o‘rganishga mo‘ljallangan ilmiy muassasa.

Bibixonim – Amir Temur tomonidan yuksak qadrlangan va xalq orasida katta hurmatga ega bo‘lgan Saroymulkxonimga berilgan unvon.

Zij – osmon jismlarining harakati va holatini ko‘rsatuvchi jadval.

Savol va topshiriqlar

1. Samarqand shahriga asos bo‘lgan qadimgi manzilgohlar qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
2. Samarqand shahri qaysi buyuk bobokalonimiz davrida davlatimiz poytaxti va dunyo markaziga aylangan?
3. Amir Temur bobomiz ustozi Sayyid Barakani o‘zidan yuqoriroq yerga dafn etishni vasiyat qilgani uning qanday fazilatini ko‘rsatadi?

Buxoro – bilimlar yurti

Buxoro – 2500 yil

Zarafshon vodiysining yana bir go‘zal vohasi Buxorodir. Uning yuragi esa Buxoro shahridir. “Buxoro” atamasining kelib chiqishi bo‘yicha bir qancha qarashlar bor. Ular orasida eski turkiyda bilag‘on, aqlli kishini anglatadigan **“bo‘gu”** va **“yer”** so‘zlarining qo‘shilmasidan tug‘ilgani bo‘yicha taxmin ishonchliroqdir. Demak, “Buxoro – bilimlar yurti” deganidir. 11-darsda Buxoro shahri tamal toshini ***Alp Er To‘nga*** qo‘ygani haqida aytib o‘tgandik. **1000 yil burun** yashagan Muhammad Narshaxiyning yozishicha, buyuk bobomiz qabri ham shu yerda.

Islom olamining gumbazi

Buxoro butun islom dunyosida alohida e’zozlanadigan zamin bo‘lib, uni azaldan ***Buxoroyi sharif*** (sharafli, muqaddas Buxoro) deb ulug‘laydilar. Garchi islom dini yurtimizdan yiroqda tug‘ilgan bo‘lsa-da, islom ilmi va ma’rifatini butun olamga yoyishda buxorolik buyuk olimlar tengsiz xizmat qilganlar. Shuning uchun ham, ushbu muqaddas shahar tarixda ***Qubbatul Islom***, ya’ni “***Islom dinining gumbazi***” degan yuksak nomga sazovor bo‘lgan.



14.5-rasm. *“Sahihi Buxoriy” asari qo‘lyozmasi.*

Bu tabarruk yerning eng buyuk allomalaridan biri ***Imom Buxoriy*** bobomizdir. Imom Buxoriy umr bo‘yi to‘plab, saralagan, payg‘ambarimizning hadislari jamlangan ***“Sahihi Buxoriy”*** asari islom olamida muqaddas Qur’ondan keyingi eng muhim va ishonchli manbalardan biri sanaladi.

Boykent shahrining qismati

Buxoro yaqinida **2400 yil oldin** barpo etilgan bir shahar bo‘lib, yirik, boy va go‘zalligi uchun uni ***Boykent*** deb ataganlar. Turondagi eng yirik savdo markazlaridan biri ekani sabab xalq orasida ***“Savdogarlar shahri”*** deb ham yuritilgan. Shaharda ko‘plab hunarmandchilik ustaxonalari va gavjum bozorlar, shuningdek uzoq-yaqin o‘lkalardan kelgan savdogarlar va musofirlar uchun karvonsaroylar bo‘lgan.

Kun maqoli

Yerni buzadigan ham suv,
Tuzadigan ham suv.

Biroq so‘nggi 1500 yil gullab-yashnagan va boy shahar **11-yuzyillikka kelib,** asta-sekin tanazzulga uchray boshlagan. Xo‘sh, bunga nima sabab bo‘lgan? Shaharni dushmanlar vayron qilganmi? Yo‘q, Zarafshon daryosining irmoqlari qurib, shaharga suv kelmay qolgan. Shu sababli u yerda yashash qiyinlashgan. Suvsiz qolgan odamlar shaharni tashlab ketishga majbur bo‘lganlar. Boykent shahrining ushbu achchiq qismati bizga tabiatni asrash hamda tiriklik manbayi bo‘lgan suvni tejash va undan oqilona foydalanish qanchalik muhimligini o‘rgatadi.

“Zandonada ishlab chiqarilgan”

Buxoro dovrug‘ini atoqli olimlarigina emas, balki hunarmandlari ham butun olamga yoyganlar. Masalan, **Zandona** qishlog‘ida to‘qilgan ***Zandonachi matolari*** shunchalik mashhur bo‘lganki, Osiyo va Yevropa saroylaridagi hukmdorlar va boy-badavlat kishilar ushbu matolardan tikilgan kiyimlarni qadrlab kiyganlar. Bu matolar ipakdan nafis naqshlar bilan to‘qilgan.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Buxoro – ochiq osmon ostidagi muzey. Buxoroga bunday ta’rif nima uchun berilganini bilasizmi? Bugun Buxoro 300 dan ortiq tarixiy-madaniy yodgorlik saqlanib qolgan shahar sanaladi. Bunday son va ko‘lamda o‘tmish bilan bog‘liq bo‘lgan shahar dunyoda kamdan-kam topiladi.



14.6-rasm. *Zandonachi matolarining naqshlari.*

Buxoro durdonalari



Ismoil Somoniy maqbarasi

Bu imorat hukmdor ***Ismoil Somoniy tomonidan*** **10-yuzyillikda** otasi ***Ahmad*** xotirasiga atab barpo etilgan. Keyinchalik Ismoil Somoniyning o‘zi va nevarasi ***Nasr*** ham shu yerga ko‘milganlar. Bu bino o‘zbek va jahon me’morchiligining eng noyob namunalaridan biridir. U pishgan g‘ishtdan terilgan bo‘lib, g‘ishtlarning o‘ziga xos joylashuvi binoda nafis naqshlar hosil qiladi va unga ko‘rk bag‘ishlaydi.



Arslonxon minorasi

Buxoroning eng mashhur ramzlaridan biri ***Arslonxon minorasi*** sanaladi. Uni **1127-yili** hukmdor Arslonxon qurdirgan. Minoraning balandligi deyarli 50 metrga yetadi. Uning tepasiga ichkarisidagi 104 ta aylanma zinadan chiqiladi. Bu minora o‘z davrida va hatto bugun ham butun o‘lkaning eng muhtasham inshootlaridan biridir.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Qadimda Buxoro madrasalarida o‘qigan talabalarga bepul yotoqxona va kunlik chiqimlar uchun mablag‘ – maxsus stipendiya ham berilgan.



14.7-rasm. *Buxoro shahridagi Modarixon madrasasi.*

Bilimli kishilar shahri

Buxoro chindan ham bilimlar yurti ekanini ushbu tabarruk shaharda yuzlab madrasalar faoliyat yuritgani ham tasdiqlaydi. Ularda bilim olish istagida bo‘lgan minglab yoshlar olamning turli chekkalaridan oqib kelgan.

Ulug‘bek Samarqanddan tashqari **1417-yili** Buxoroda ham go‘zal madrasa bunyod ettirgan. Shayboniy hukmdor ***Abdullaxon*** ham ilm-fanni juda qadrlagan. U o‘z onasiga bo‘lgan cheksiz hurmati belgisi sifatida ***Modarixon (Xon onasi) madrasasi***ni, uning qarshisida esa ***Abdullaxon madrasasi***ni qurdirgan.

Tarixda bir-biriga qaratib qurilgan bunday hashamatli madrasalar ***“Qo‘sh madrasa”*** deb atalgan. Shuningdek, Turondagi eng katta sanalmish ***Ko‘kaldosh madrasasi***ni ham Buxoroda Abdullaxonning safdoshlaridan bo‘lmish ***Qulbobo Ko‘kaldosh*** qurdirgan. ***Abdulazizxon madrasasi*** o‘zining nihoyatda murakkab va serjilo naqshlari bilan bugungi kunda ham kishini hayratga soladi.



14.8-rasm. *Buxoro shahridagi Ko‘kaldosh madrasasi.*

Savol va topshiriqlar

1. Bir paytlar gullab-yashnagan va boy bo‘lgan qadimgi Boykent shahri keyinchalik nima sababdan kimsasiz xarobaga aylangan?
2. Buxoro shahridagi qaysi atoqli tarixiy obidalarni bilasiz?
3. Buxoroning mashhur Zandonachi matolari misolida o‘tmishdagi hunarmandchilik va savdo haqida nimalarni ayta olasiz?
4. Imom Buxoriy bobomiz kim bo‘lgan va u qanday ulug‘ asar yaratgan?
5. Buxorodagi yuzlab qadimgi madrasalar o‘sha davrlarda ilm-fan va ta’limning rivojlanishida qanday o‘rin tutgan?

Alisher Navoiy sharafiga atalgan viloyat







O‘zbekistonning markazida joylashgan, o‘zining tengsiz yerosti va yerusti boyliklari bilan taniqli hududlardan biri Navoiy viloyatidir. Ushbu viloyat xalqimizning buyuk o‘g‘loni va g‘azal mulkining sultoni ***Alisher Navoiy*** nomi bilan ulug‘langan.

Nima uchun aynan ushbu o‘lkaga buyuk bobomizning nomi berilgan? Mazkur voqea yuz bergan **1982-yili** biz hali mustaqil emas edik. Atoqli bobomizning umri kechgan va so‘nggi qo‘nim topgan Hirot shahriga ziyoratga borish imkonimiz yo‘q edi. Shu bois O‘zbekistonning bir bo‘lagini hazrat Alisher Navoiy nomi bilan ulug‘lash orqali buyuk ajdodimiz ruhi o‘z xalqi bag‘riga olingan.

Viloyatning tabiati g‘oyatda qiziqarli va rang-barangdir: bu yerda ***Qizilqum cho‘li, Nurota tog‘lari*** va hayot manbayi bo‘lgan ***Zarafshon daryosi***ni ko‘rish mumkin.

Toshga aylangan o‘rmon

Navoiy viloyatining ***Mingbuloq*** qishlog‘i yaqinida joylashgan ***Jaraquduq darasi*** butun dunyo olimlarini hayratga solib keladi. Bu yerda **millionlab yillar oldin** to‘lib-toshgan okeandan qolgan noyob tabiiy yodgorlik – ***Tosho‘rmon*** joylashgan.
Ushbu o‘ziga xos o‘rmon aslida okean cheti, daryolar, quruqliklarda yashagan turli hayvonlar, jumladan, baliqlar, akulalar, toshbaqalar, qurbaqalar, kaltakesaklar, timsohlar, dinozavrlar, yumshoqtanlilarning million yillar ichida toshga aylanishi natijasida yaralgan.



Navoiy durdonalari

Sarmishsoy – qadimgi tosh bitik

Nurota tog‘lari orasidagi ***Sarmishsoy darasi*** ochiq osmon ostidagi ulkan muzeydir. U yerda ko‘pchiligi **8000 yil burundan** boshlab tosh, metall bilan urib, cho‘kichlab ishlangan 6000 dan ortiq surat bor. Ularda xo‘kiz, bizon, bug‘i, qulon, jayron, echki, to‘ng‘iz, yo‘lbars, arslon, qoplon, yuz, it, ot, tuya kabi hayvonlar, ov manzaralari, o‘q-yoy, qilich, odamlar va hatto qadimgi kiyimlar ham o‘z aksini topgan.



Tarixiy manbalar

Sarmishsoydagi ikki o‘rkachli tuya qo‘shilgan to‘rt g‘ildirakli arava surati ajdodlarimiz ilk aravalarni ixtiro qilgan xalqlardan biri bo‘lganini hamda tuya qo‘lga o‘rgatilgan ilk mintaqa ekanini ko‘rsatadi.



Mir Said Bahrom maqbarasi



Navoiy viloyatidagi Karmana shahrida bugungi kungacha saqlanib qolgan eng qadimgi inshootlardan biri – ***Mir Said Bahrom maqbarasi*** qad ko‘tarib turibdi.

Agar e’tibor berib qarasangiz, uning g‘ishtlari xuddi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidagidek terilganini ko‘rasiz.

Raboti Malik – xoqonlar saroyi



Karmanadagi yana bir mashhur tarixiy obida – ***Raboti Malikdir.*** Qadimda bu yer Qoraxoniy sulolasiga mansub hukmdorlarning hashamatli qarorgohi bo‘lgan. Keyinchalik u savdogarlar uchun karvonsaroyga aylangan. Garchi vaqt o‘tishi bilan uning vazifasi o‘zgargan bo‘lsa-da, u uzoq yillar davomida sayohatchilar va savdogarlar uchun xavfsiz boshpana bo‘lib xizmat qilgan.



Eslab qoling

Qarorgoh – hukmdorlar yashaydigan va davlat ishlarini boshqaradigan joy.

Karvonsaroy – qadimda savdogarlar va sayohatchilar to‘xtab, tunab qoladigan mehmonxona.

Sardoba – yerosti suv ombori.



Sardoba – cho‘ldagi sovitkich

Raboti Malik qarshisida gumbazli bir bino bor. Bu – **sardoba.** “Sardoba” forscha so‘z bo‘lib, **“muzdek suv”** degan ma’noni anglatadi. Bugun ham uzoq yo‘lga chiqqan kishi ichimlik suvini g‘amlab oladi, to‘g‘rimi? Bilimli va topqir bobolarimiz qadim zamonlardanoq ushbu ehtiyojni shahar, qishloqlarni bog‘lovchi yo‘llar, ayniqsa, cho‘l o‘rtasida sardobalar qurish orqali qondirganlar. Yomg‘ir, buloq, ariq suvlari sopol quvurlar orqali olib kelingan va ushbu sovitkichlarda saqlangan. Ular juda chuqur bo‘lgan. Masalan, Raboti Malik sardobasining cho‘nqirligi 18 metr bo‘lib, u suvni xuddi hozirgi sovitkichlardek salqin saqlagan.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Sardobalardagi suv sovuqligidan tashqari juda toza bo‘lgan. Buning siri ajdodlarimiz suvni tozalash uchun ko‘mir va tuya junidan yasalgan maxsus suzgichlardan foydalanganlarida edi. Ular suvni tozalab, uni uzoq muddat yaroqli saqlab bergan.

Savol va topshiriqlar

1. Navoiy viloyatida qanday qiziqarli tarixiy obidalar va yodgorliklar joylashgan?
2. Jaraquduq darasi va Sarmishsoy qoyatoshlaridagi tasvirlarda o‘tmishga oid qanday ma’lumotlar aks etgan?
3. Arxeologlar Sarmishsoy qoyatoshlaridagi tasvirlar orqali bobo-buvilarimiz turmushi haqida nimalarni bilib olishlari mumkin?
4. Ajdodlarimiz qurgan qadimgi sardobalar qanday vazifani bajargan?